

Komolov Dilshod Pulatovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
professori, tarix fanlari doktori(DSc)
ORCID: 0000-0002-2076-1179

Do'smurodov Shodiyor Sobirovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
magistranti
d.kamolov@mai.ru

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PROKURATURA ORGANLARINING VUJUDGA KELISHI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. Maqolada prokuratura institutining tarixiy shakllanishi, uning qadimgi davlatlardan tortib zamonaviy O'zbekiston huquqiy tizimigacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Qadimgi Rim va musulmon davlatlaridagi huquqiy nazorat tuzilmalari, shuningdek, O'zbekistonda 1992 va 2001 yillarda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi qonunlarning ahamiyati tahlil etilgan. Shu bilan birga, 2016 yildan keyingi sud-huquq islohotlari va 2018 yil 8 maydagi Prezident farmoni orqali prokuratura kadrlar tayyorlash tizimida amalga oshirilgan o'zgarishlar ilmiy asosda baholangan.

Kalit so'zlar: Prokuratura, qonun ustuvorligi, davlat boshqaruvi, muhtasib, "Prokuratura to'g'risida"gi qonun, Prezident farmoni, Prokuratura akademiyasi, kadrlar siyosati, huquqiy islohotlar.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: В статье освещено историческое формирование института прокуратуры, этапы его развития от древних государств до современной правовой системы Узбекистана. Проанализированы правовые контрольные структуры в Древнем Риме и мусульманских государствах, а также значение законов «О прокуратуре», принятых в Узбекистане в 1992 и 2001 годах. Кроме того, научно оценены судебно-правовые реформы, проведенные после 2016 года, и изменения в системе подготовки кадров прокуратуры в соответствии с Указом Президента от 8 мая 2018 года.

Ключевые слова: прокуратура, верховенство закона, государственное управление, мухтасиб, закон «О прокуратуре», указ Президента, Академия прокуратуры, кадровая политика, правовые реформы.

THE EMERGENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE PROSECUTOR'S OFFICE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation. The article highlights the historical formation of the prosecutor's office as an institution and its stages of development from ancient states to the modern legal system of Uzbekistan. It analyzes the legal control structures of Ancient Rome and Muslim states, as well as the significance of the Laws "On the Prosecutor's Office" adopted in Uzbekistan in 1992 and 2001. In addition, the paper provides a scholarly assessment of judicial and legal reforms carried out after 2016 and the changes introduced into the prosecutor's training system under the Presidential Decree of May 8, 2018.

Keywords: prosecutor's office, rule of law, public administration, muhtasib, Law "On the Prosecutor's Office," Presidential Decree, Prosecutor's Academy, personnel policy, legal reforms.

Inson sivilizatsiyasi taraqqiyoti jarayonida har bir davlat qonun ustuvorligini ta'minlash va ijtimoij munosabatlarni tartibga solish uchun maxsus institutlarga ehtiyoj sezgan. Tarixiy

manbalardan ma'lumki, qonunlar ijrosini nazorat qiluvchi va davlat manfaatlarini himoya etuvchi maxsus organlar ilk bor qadimgi davlat tuzilmalarida ham mavjud bo'lgan. Masalan, Rim imperiyasida "curator rei publicae" yoki "procurator" deb atalgan amaldorlar davlat mulki va manfaatlarini muhofaza qilish bilan shug'ullangan.

Etimologik jihatdan "prokuratura" iborasi lotincha "procurare" so'zidan olingan bo'lib, "g'amxo'rlik qilmoq" degan ma'noni anglatadi[1,-C.44]. Ushbu institut Yevropada qonuniylikni kuzatuvchi hamda jinoyat uchun ta'qib etuvchi maxsus tuzilma sifatida XIII-XIV asrlarda shakllangan. Jumladan, prokuratura ilk marta 1302-yilda Fransiya aynan qirolning manfaatlarini himoya qiluvchi organ sifatida tashkil etilgan. Qirol prokuror yordamida butun davlat mexanizmining samarali ishlashini boshqarib turgan[2,-C.207]. Prokuratura instituti keyinchalik boshqa mamlakatlarda tarqala boshlagan va XIX asr boshiga kelib Yevropada qonuniylikni nazorat qilishning hukmron shakliga aylangan[3, -B.22]. Rossiyada esa prokuratura 1722 yilda tashkil topgan. O'sha vaqtda prokuratura davlatni hamda barcha fuqarolarni manfaatlarini qo'riqlashi kerakligi belgilangan[4,-C.6].

O'rta asr musulmon davlatlari tajribasida ham qonuniylik va ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadida prokuraturaga yaqin vazifalarni bajargan davlat lavozimlari mavjud bo'lgan. Masalan, musulmon huquqida qonunlar ijrosi ustidan nazorat instituti avval boshidan mavjud bo'lgan va bu "muhtasib" (yoki "hisba") tuzilmasi shariat normalarini ijrosini nazorat qilish bilan birga jinoyat ta'qibini ham amalga oshirgan. "Qozilik" instituti esa odil sudlovni amalga oshirib kelgan.

Islom tarixiga ko'ra, "muhtasib" instituti VII asrda halifa Umar (r.a.) tomonidan shikoyatlarni ko'rib chiqish va nizolarni hal qilish uchun tashkil etilgan[5,-B.27-28] va abbosiy halifa Mahdi (755-785) hukmronligi davrida yanada keng vakolatlarga ega bo'lgan[6,-C.118-119].

Muhtasib (arab. - nazorat qiluvchi) – o'rta asr musulmon davlatlarida islom marosimlari, urf-odatlar va shariat qonunlarining bajarilishi, odamlarning jamoat joylarida yurish-turishi ustidan nazorat qiluvchi amaldor bo'lib, shariat tizimiga xos mansabdor shaxslar toifasiga kirgan.

O'rta Osiyoda ular rais deb atalgan. Muhtasibni odatda davlat boshlig'i tayinlagan, ammo u ma'muriy jihatdan qozidan pastroq lavozim hisoblangan[7,-C.40]. Ko'pgina musulmon mamlakatlarida muhtasiblar to'liq qozining bo'ysunuvida bo'lgan va qozi ularni o'z tanlovi asosida tayinlagan. Keyinroq, halifalik o'rniga sultonlik paydo bo'lganidan keyin muhtasib lavozimi hukmdor boshqaruvi ostiga o'tgan. Natijada, ular davlat boshlig'i tomonidan tayinlanadigan mansabdor shaxsga aylangan va ijro hokimiyatiga bo'ysundirilgan[8].

Muhtasiblar apellyatsiya instansiyasi hisoblangan "Qozi ul-quzzot" (oliy sudya) bilan parallel ravishda faoliyat ko'rsatishgan. Ular o'rtasidagi asosiy farq shunda ediki, muhtasib, darhol qaror qabul qilishni talab etadigan mayda huquqbuzarliklarni ko'rib chiqishni istisno qilmaganda, ishni to'liq hal etish vakolatiga ega bo'lmagan[9,-C.29].

Buxoro shahrida 1920 yilga qadar "muhtasib" instituti o'rta asrlardagi shaklida saqlanib qolgan. Manbalarda qayd etilishicha, qonuniylikning ta'minlanishi natijasi o'laroq, bu yerda bo'lgan chet elliklar namoz vaqtida rastalar 20-25 daqiqa ochiq qoldirilsa-da, hech narsa yo'qolmasligidan hayratlanishgan[10].

XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan so'ng ushbu hududda chor imperiyasi qonunlari amal qila boshlagan va prokuratura sud-huquq tizimida faoliyat yuritib kelgan.

Bolsheviklar to'ntarishidan keyin, 1922 yil 9 mayda[11] Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Soveti va Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tomonidan 1922 yil 3 iyunda qonuniy kuchga kirgan Turkiston ASSRning davlat prokuraturasi haqidagi Nizom tasdiqlangan [12]. 1922 yilning iyun oyida Turkiston ASSRda prokuratura markaz va hududlarda tashkil etilgan[13,-B.16].

Sobiq ittifoq tuzumi hukm surgan davrda prokuratura kommunistik partiya hokimiyatining tayanchlaridan biri sifatida hukmron g'oya – kommunistik mafkurani himoya qilgan va sotsialistik qonunchilikning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirgan.

Prokuraturaning tarixi shuni ko'rsatmoqdaki, u qanday nom bilan atalmasin, qonunlar ijrosini nazorat qiluvchi institut sifatida davlat boshqaruvini amalga oshirishda hamma vaqt muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilinishi bilan mamlakatda yangi davlat boshqaruv tizimi shakllana boshladi. Shu jarayonda sud-huquq tizimi bilan bir qatorda prokuratura organlarini milliy asosda qayta tashkil etish masalasi ham kun tartibiga qo'yildi.

Prokuratura tizimining huquqiy asosini belgilab bergan ilk muhim hujjatlardan biri — 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'lib, uning 118-moddasida prokuratura organlarining davlat hokimiyati tizimidagi o'rni aniq belgilab qo'yildi[14]. Unga ko'ra, prokuratura davlat nomi bilan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini nazorat qiladi.

O'zbekistonda mazkur institutning maqsad-vazifalari, tuzilishi va vakolatlari 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi qonun bilan belgilab qo'yildi[15]. Mazkur qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi prokuratura tizimi faoliyatining mazmun-mohiyati mamlakatda qonuniylilikni ta'minlash, huquq-tartibotni mustahkamlash hamda inson va fuqarolarning konstitutsion huquq va erkinliklarini himoya qilishga yo'naltirilgandir. O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar o'z vakolatlarini amalga oshirishda quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ish yuritdilar:

Birinchi navbatda, inson va fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda shaxsiy huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan tizimli prokurorlik nazorati amalga oshirildi. Bu yo'nalish prokuratura organlarining faoliyatida inson huquqlarini kafolatlashga qaratilgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Ikkinchidan, barcha vazirliklar, davlat idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar tomonidan qonun talablariga rioya etilishi ustidan umumiy nazorat amalga oshiriladi. Bu orqali davlat boshqaruvi tizimidagi barcha darajadagi subyektlar faoliyatining qonuniyligi ta'minlanadi.

Uchinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi idoralarning qonunlarni ijro etishdagi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish hamda ularning huquqni qo'llash amaliyotini muvofiqlashtirish prokuraturaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jinoyatchilikka qarshi kurashishda yagona huquqiy yondashuvni ta'minlaydi.

To'rtinchidan, prokuratura organlari sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilishida davlat ayblovini qo'llab-quvvatlaydilar, fuqarolik, ma'muriy huquqbuzarlik va xo'jalik ishlari bo'yicha sud majlislarida ishtirok etadilar hamda qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga nisbatan protest keltiradilar. Ushbu vazifa odil sudlovni amalga oshirishda prokurorning faol ishtiroki va davlat manfaatlarining huquqiy himoyasini ta'minlaydi.

Beshinchidan, prokurorlar ushlab turilgan va qamoqqa olingan shaxslarni saqlash joylarida, shuningdek, jinoiy jazolar va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijro etish jarayonlarida qonun talablariga rioya etilishini tekshiradilar. Bu inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning muhim kafolatidir.

Oltinchidan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari hamda vazirlik va idoralar tarkibidagi harbiy bo'linmalarda qonunlarning ijro etilishi ustidan prokurorlik nazorati amalga oshiriladi. Bu orqali harbiy tartibot va qonuniylilikning ta'minlanishi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura tizimida xizmat qiladigan shaxslar tanlovi va lavozimga tayinlanishi qat'iy huquqiy va axloqiy mezonlar asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonning huquqiy asosi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning tegishli normalarida o'z ifodasini topgan bo'lib, u prokuror kadrlarini shakllantirishda yuqori kasbiy malaka, siyosiy betaraflik va ma'naviy barkamollik talablariga tayanadi.

Prokuror lavozimiga faqat O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, oliy yuridik ma'lumotga ega hamda zarur kasbiy bilim, tajriba va axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar tayinlanishi mumkin. Bu talab davlat organining nufuzi va prokuror faoliyatining adolat, halollik va qonun ustuvorligi tamoyillariga asoslanishini ta'minlaydi.

Prokuratura tizimiga ilk bor qabul qilingan shaxslar maxsus qasamyod qabul qiladilar. Qasamyod mazmuni prokurorning qonunga sadoqatli bo'lishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda xolislik va vijdonan xizmat qilish majburiyatini belgilaydi. Mazkur

qasamyodning matni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanishi uning huquqiy va ma'naviy ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shaharlar miqyosidagi prokurorlar hamda ularga tenglashtirilgan mansabdor shaxslar lavozimiga yoshi kamida 25 yil bo'lgan fuqarolar tayinlanishi belgilangan. Bu talab xizmatdagi mas'uliyat darajasiga mos ravishda yetarli tajriba va hayotiy tafakkurga ega kadrlarni tanlashni ko'zda tutadi.

Prokurorlar faoliyatida kasbiy malaka va huquqiy salohiyatni doimiy ravishda baholab borish tizimi joriy etilgan bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tishlari shart. Attestatsiya tizimi prokurorning xizmatga layoqatini, qonunchilikni bilish darajasini va amaliy faoliyat samaradorligini baholashda muhim mezon vazifasini bajaradi.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy islohotlarning yangi bosqichi 2000-yillar boshlarida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish bilan tavsiflanadi. Shu jarayonda prokuratura organlarining faoliyatini zamon talablariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurati yuzaga keldi.

Aynan shu maqsadda 2001 yil 29 avgustda "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Mazkur hujjat mustaqil O'zbekiston huquqiy tizimida prokuraturaning vazifalari, vakolatlari va faoliyat tamoyillarini tubdan qayta belgilab berdi. Yangi tahrirdagi Qonun avvalgi 1992 yilgi tahrirga nisbatan ko'plab konseptual yangiliklarni o'z ichiga oldi va prokuratura institutining huquqiy maqomini davlat boshqaruvining muhim tarkibiy qismi sifatida mustahkamladi[16].

2016 yildan keyin O'zbekiston Respublikasida boshlangan sud-huquq tizimi islohotlari doirasida prokuratura organlarini zamon talablariga moslashtirish, ularning kasbiy va axloqiy salohiyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Shu maqsadda 2018 yil 8 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi[17]. Mazkur farmon prokuratura tizimini rivojlantirish, kadrlar siyosatida uzluksiz ta'lim va ilmiy yondashuvni joriy etish bo'yicha huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Farmonning asosiy maqsadi prokurorlik faoliyatida inson omilini kuchaytirish, malaka va bilim darajasini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish hamda prokuratura organlarini faoliyat samaradorligi, axloq madaniyati va mas'uliyati jihatidan yangi bosqichga olib chiqishdan iborat bo'ldi. Shu orqali prokuratura tizimi faqat nazorat instituti emas, balki ilmiy-ta'limiy va analitik markaz sifatida shakllantirildi.

Farmon asosida Bosh prokuratura huzurida Prokuratura akademiyasi tashkil etildi. Uning faoliyatiga kadrlarni zamonaviy huquqiy bilimlar asosida tayyorlash, amaldagi prokurorlarning malakasini oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va xorijiy tajribalarni joriy etish vazifalari yuklatildi. Akademiyada o'quv dasturlari inson huquqlari, xalqaro huquq, korrupsiyaga qarshi kurash va axborot xavfsizligi kabi zamonaviy fanlar bilan boyitildi. Bunda nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'minlandi hamda "uzluksiz kasbiy ta'lim" tizimi joriy qilindi.

Prokuratura akademiyasi faoliyati natijasida kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va faoliyatni baholashning ilmiy asoslangan mezonlari ishlab chiqildi. Ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyatni integratsiya qilish, kadrlar malakasini chuqur tahlil qilish orqali faoliyat samaradorligini oshirishga erishildi. Bu jarayon prokuratura tizimining kadrlar siyosatida sifat jihatidan yangi bosqichni boshladi.

Farmonning amalga oshirilishi natijasida prokuror xodimlarning bilim va kasbiy saviyasi sezilarli darajada oshdi, axloqiy madaniyat, xizmat intizomi va jamoatchilik bilan muloqotda yangi standartlar joriy etildi. Bu esa prokuratura organlarining davlat boshqaruvidagi nufuzini va fuqarolar huquqlarini himoya qilishdagi samaradorligini oshirdi.

Xulosa qilib aytganda, Prokuratura instituti insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti davomida davlat boshqaruvi va qonun ustuvorligini ta'minlash tizimining ajralmas qismi sifatida shakllanib,

- 82 О'zbekistonda ham ushbu institut tarixan o'ziga xos evolyutsiyani bosib o'tgan. Mustaqillik davrida Konstitutsiya va "Prokuratura to'g'risida"gi qonunlar asosida uning huquqiy maqomi mustahkamlanib, inson huquqlarini himoya qilish, qonuniylikni ta'minlash va adolatni qaror toptirish yo'lidagi faoliyati tubdan yangilandi. Ayniqsa, 2016 yildan keyingi davrda amalga oshirilgan chuqur sud-huquq islohotlari prokuratura tizimining institutsional, kasbiy va ilmiy salohiyatini sezilarli darajada oshirib, uni huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida muhim normativ-nazorat hamda ilmiy-analitik funksiyalarni bajaruvchi zamonaviy demokratik institut darajasiga ko'tardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Modern legal encyclopedia. 1994; Бельсон Я.М. Суд, прокуратура и тюрьма в современном буржуазном государстве. - М. 1972.
2. Гартунг Н. История уголовного судопроизводства и судоустройства Франции, Англии, Германии и России. — Рипол Классик, 2013.
3. Ибрагимов З.С. Мустақиллик ва Ўзбекистон Республикаси прокуратураси (истиклол йилларидаги ҳуқуқий мақоми ривожланишининг қиёсий таҳлили) - Т.: "Ношир", 2011.
4. Прокуратура Санкт-Петербурга. - СПб., 1987.
5. Дин Готтер. Омбудсман ҳамда демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари, №1. 1999. –Б.27-28.
6. Раджабов К., Кандов Б. Жаҳон тарихидаги сулола ва давлатлар. Ташкент, 2015.
7. Семенов А. А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей в редневековой Бухаре. -М. 1948.
8. Бухарский мухтасиб в начале XX века. [Электрон манба]. URL: googleweblight.com.
9. Абу Юсуф Йакуб Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (мусульманское налогообложение). СПб., 2001.
10. Ислам. Энциклопедический словарь. – С.183. Бухарское ханство в фотоколлекциях. [Электрон манба]. URL: www.kunstkamera.ru.
11. "Известия ТуркЦИК" от 1992 года 3 июня.
12. О'zbekiston Milliy arxivi 25-fond, 1-ro'yxat, 19-yig'ma jild, 161-varaq.
13. Махбубов М. Ўзбекистонда прокуратура органларини ташкил этилиши ва ривожланиши. Юр.фанлар докторлиги учун ёзилган диссертация автореферати.-Тошкент, 1993 йил.
14. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/35869>.
15. Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/-31452>.
16. Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/-106197>.
17. Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/-3727063>